



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

**2026-YIL / AVGUST / 8-SON,
I-QISM**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, avgust.
I-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'RTA DAROMADLI MAMLUKATLARDA INNOVATSION XARAJATLARNING EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASIGA TA'SIRI	20
Karimova Xulkar Raxmanali qizi Jalg'ashova Nazira Umbet qizi	
MINTAQADA SANOAT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI	26
Mamedov Ko'palboy Masharipovich	
TA'LIM XIZMATLARINI BOSHQARISHDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA SIFATNI TA'MINLASH	30
Umarov Ravshanjon Gafurovich	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	36
Mamurov Doniyor Eldorovich	
MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA YASHIL INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH TAMOIYILLARI VA USULLARI	43
Ro'zimov Doniyor Soporboy o'g'li	
TOSHKENT METROPOLITENI SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH DARAJASINING DINAMIKASI VA UNI XALQARO TAJRIBA BILAN QIYOSIY BAHOLASH	49
Mansurov Xamrokul Ilxomovich	
ЦИФРОВАЯ САМООРГАНИЗАЦИЯ БУДУЩИХ МЕНЕДЖЕРОВ КАК ФАКТОР ЭФФЕКТИВНОСТИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ	56
Мирвосикий Хилола Хабибулла кизи	
XORAZM VILOYATIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING ILMIY-AMALIY TAHLILI	64
Z.Sh. Matniyozova	
DEVELOPMENT MECHANISMS OF EMBEDDED FINANCE SERVICES IN COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN BASED ON OPEN BANKING	69
Khurramova Fotima Bakhodir qizi	
IMPROVING THE PRACTICE OF FINANCING INVESTMENT PROJECTS THROUGH SYNDICATED LOANS PROVIDED BY COMMERCIAL BANKS	76
Xudaynazarov Davrbek Abdullayevich	
TASHQI SAVDO DINAMIKASI VA BANK MOLIVAVIY XAVFSIZLIGI: O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI MISOLIDA AMALIY TAHLIL	83
Babadjanov Shuxrat Atxamovich	
GREEN LENDING PRACTICED AMONG UZBEK COMMERCIAL BANKS: SURVEY- BASED ASSESSMENT OF READINESS AND CONSTRAINTS	90
Avazov Azizbek Ashurali o'g'li	
"YANGI O'ZBEKISTON – 2030" STRATEGIYASI DOIRASIDA IQTISODIY O'ZGARISHLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI	96
Amirov Otabek Xudoyberdi o'g'li	
BARQAROR YASHIL INVESTITSİYALARNING QAYTA TIKLANUVCHI ENERGETIKA RIVOJIGA ROLINI VA HISSASINI TAHLIL QILISH: O'ZBEKISTON MISOLIDA	101
Zilola Kazakova	
HUDUD SANOATIDA KAPITAL VA MEHNAT RESURLARI SAMARADORLIGINI KOB-B-DUGLAS MODEL YORDAMIDA BAHOLASH	113
Turayev Baxrom Ergashevich	



“MAHALLA BANKIRI” INSTITUTI DAVLATBANK HAMKORLIGINING OPERATSION BO‘G‘INI SIFATIDA: SAMARADORLIK MEZONLARI VA OPTIMAL YUKLAMA PARAMETRLARI	120
Nurmuratov Azamat Mamarizo o‘g‘li SHAHAR JAMOAT TRANSPORTI YO‘NALISHLARINING AHOLI EHTIYOJLARIGA MOSLIGINI TADQIQ ETISH (URGANCH SHAHRI MISOLIDA)	127
Abdullayeva Shahzodaxon Fazliddin qizi O‘ZBEKISTONDA QISHLOQ XO‘JALIGINI RO‘YXATGA OLISHNING AGRAR IQTISODIY O‘SISHNI TA‘MINLASHDAGI INSTITUTSIONAL ROLI	132
Shohujayeva Zebo Safoyevna Xolov Javlonbek Davronovich UZBEKISTAN KAK AKADEMIЧЕСКИЙ ХАБ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	138
Эргашева Шахло Тургуновна БУХГАЛТЕРСКИЙ УЧЕТ КАК ИНФОРМАЦИОННАЯ ОСНОВА ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ ПРЕДПРИЯТИЯ	146
Маннапова Раъно Абборовна YOSHLAR TADBIRKORLIGINI MOLIVAVIY, INSTITUTSIONAL VA RAQAMLI QO‘LLABQUVVATLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN RAQAMLI MODELLARI: “3M-PLATFORMA” VA “SMART YOUTH BUSINESS ECOSYSTEM” KONSEPSIYALARI	154
Xojiyev Ma‘murjon Muxsinjon o‘g‘li RAQAMLI BANK XIZMATLARINING IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL XUSUSIYATLARI	163
Begimqulova Sevara Nurmamatovna KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI	169
Yusupov Muxiddin Soatovich Normaxmatov Fazliddin Nuriddin o‘g‘li OLIY TA‘LIMDA INNOVATSION MENEJMENT IMKONIYATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH	177
Abdullayev Farhod Ozodovich “YASHIL MAKON” UMUMMILLIY LOYIHASINI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILIY-AMALIY NATIJALARI	180
Jamshidbek Bobojonov QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARI EKSPORTI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA KLASTERLARNING AHAMIYATI	184
Radjabova Mavluda Ergash qizi STRENGTHENING MAHALLA ENTREPRENEURSHIP THROUGH AN INTEGRATED ECOSYSTEM: FUNCTIONAL LINKAGES, DIGITAL COORDINATION, AND REGIONAL EVIDENCE	189
Zafarjon Odiljonovich Tuxtasinov MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA GENERATIV SUN‘IY INTELLEKT INFRATUZILMASINING NAZARIY ASOSLARI	195
Saidov Jaloladdin Allaberganovich KORXONALARDA BOSHQARUV QARORLARINI QABUL QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	202
Mamajonova Surayyoxon Maxmudjonovna PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARIDA INNOVATSION RIVOJLANISHNING HUDUDIIY XUSUSIYATLARINI BAHOLASH METODIKASI	207
Tojiyev Sa‘dulla Muhitdinovich INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION IMPROVING ECONOMIC INCENTIVE AND RESOURCE-ALLOCATION MECHANISMS AS A FACTOR IN INCREASING THE EFFICIENCY OF INDUSTRIAL ENTERPRISES: EVIDENCE FROM THE “TECHNOPARK” ENTERPRISE	213
Erkinova Umidakhon Ilhom qizi	



THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE-BASED RECRUITMENT SYSTEMS ON HIRING QUALITY	218
Mutalova Manzura Abdushukur qizi	
TOMORQA XO'JALIGI FAOLIYATI BILAN BOG'LIQ NOQISHLOQ XO'JALIGI FAOLIYATINING TA'SIRINI IQTISODIY BAHOLASH	224
U.U.Nurullayev	
SHAHAR HUDUDLARIDA EKOLOGIK MONITORING TIZIMINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	230
Asqarov Akmal Anvar o'g'li	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINI BOSHQARISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	235
Ziyodullayev Sodiqjon Mamadillayevich	
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SOHASIDA MOLIVAVIY NATIJALAR AUDITI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING YAXLIT TIZIMI	240
Bekchanov Faxriddin Atabekovich	
MAHALLIY TURIZMNI RIVOJLANLANTIRISHNING TASHKILIYIQTISODIY MEKANIZMINING ASOSIY FUNKSIYA VA PRINSIPLARI	246
Xayrullayev Elbek Xayrulla o'g'li	
ЛИЗИНГ КАК ИНСТРУМЕНТ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБНОВЛЕНИЯ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ УЗБЕКИСТАНА: ФИНАНСОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ И ОГРАНИЧЕНИЯ.....	250
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна	
TIJORAT BANKLARIDA CHAKANA BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK BAHOLASH	261
Abdiraxmonov Farxod Arabboyevich	
HUDUDLAR IQTISODIY XAVFSIZLIGINI BOSHQARISH MEKANIZMLARINING NAZARIY MODELLARI	267
Jurayev Ismatulla Izzatullayevich	
FINANCIAL MODELS IN THE EDUCATION SECTOR: A COMPARATIVE INSTITUTIONAL ANALYSIS OF STATE, PRIVATE, AND MIXED FUNDING SYSTEMS	275
Imomov Inomiddin	
SANOAT KORXONALARIDA INVESTITSION JARAYONLARNI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMI.....	281
Siddiqov Abdusalom Abdumalikovich	
NOAN'ANAVIY PUL-KREDIT SIYOSATI INSTRUMENTLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA MAZMUNI.....	292
Djumonov Dilshod Safarolievich	
URBANIZATSIYA SHAROITIDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASH MUAMMOLARI.....	302
Shodmonov Nurjaxon Shokir o'g'li	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI QO'LLAB QUVVATLASHNING IQTISODIY OMILLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	308
Reimbergenov Xurrambek Xushnudovich	
O'ZBEKISTONDA KO'CHMAS MULK BOZORI XIZMATLARINING HOZIRGI HOLATI VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	314
Sadikova Dildora Abdulla qizi	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	321
Baxadir Adilchayev	
EKOLOGIK TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH ORQALI BARQAROR RIVOJLANISHNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI	327
Ergasheva Mohinurxon Odilxon qizi	



BANK OPERATSIYALARI BO'YICHA ICHKI AUDIT AMALLARINING MAZMUNIIY VA USLUBIIY TAHLILI	331
Yuldashev Xurshidbek Mamirjonovich	
РАЗРАБОТКА И ПРИМЕНЕНИЕ МОДЕЛИ КОМПЕТЕНЦИЙ ДЛЯ ГОСУДАРСТВЕННЫХ СЛУЖАЩИХ	341
Гофурова Шахрибону Комол қизи	
INNOVATION-DRIVEN BUSINESS COMPETITIVENESS THROUGH DIGITAL TRANSFORMATION AND TECHNOLOGICAL CAPABILITY	349
Sarvinoz Asamova	
HUDUDIIY INVESTITSIIYA OQIMLARINI DIFFERENSIAL BAHOLASH ASOSIDA MINTAQAVIIY IQTISODIIY O'SISHNI MANZILLI RAG'BATLANTIRISH.....	359
Ismoilov Azizbek Rustamjon o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH YO'LLARI BO'YICHA HORIJ TAJRIBALARI.....	368
Samiyev Mirkamol Amriddin o'g'li	
ИНВЕСТИЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННОЙ РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКИ: СУЩНОСТЬ, РОЛЬ И ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ	372
Матчанов Умирзак Сейтжанович	
O'ZBEKISTONDA YASHIL LOGISTIKA TAMOIYILLARI ASOSIDA MULTIMODAL TRANSPORT-LOGISTIKA KORIDORLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIIY-IQTISODIIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	379
Islomjon Jamshedovich Jamshedov	
YASHIL INVESTITSIIYALARNING HUQUQIIYINSTITUTSIONAL ASOSLARINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	389
Temirova Nozima Shuhrat qizi	
ELEKTRON SAVDO PLATFORMALARIDA MOLIIYAVIIY TAHLILNING ZAMONAVIIY YONDASHUVLARI VA XALQARO TAJRIBA	395
Amanqulova Muxlisa Narsafar qizi	
MEHNAT UNUMDORLIGI VA MEHNAT RESURLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNI BAHOLASH.....	403
Rashidov Zuhridin Sanjar o'g'li	
MINTAQI IQTISODIIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA KLASSTERLASHNING ASOSIIY TAMOIYILLARI VA KONSEPTUAL ASOSLARI	408
Movlonova Dilrabo Nomoz qizi	
HUDUD IQTISODIIY TIZIMIDA INNOVATSION INFRATUZILMANING BARQAROR RIVOJLANISHGA TA'SIRINI BAHOLASH	412
Sapayev Sindor Qadamboy o'g'li	
KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMDA KPINING AHAMIIYATI VA UNI JORII ETISHNING ILMIY-NAZARIIY YONDOSHUVLARI.....	418
Botirjon Ergashov	
MO'YNA VA TRIKOTAJ MATERIALLARNI YOPISHTIRISH UCHUN SUVLI POLIMER YOPISHTIRUVCHI KOMPOZITSIIYA: TARKIBI, TAYYORLASH USULI VA XOSSALARI.....	424
Temirova Gulnoz Ibodovna	
Shodmonova Mijgona Salimovna	
SURXONDARYO VILOYATI TURIZM SALOHIIYATINI BAHOLASHNING KOMPLEKS MODELII.....	429
Mamatov Sardor Ilyosovich	
Rashidova Nargiza Orifjon qizi	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA INTERNETMARKETING TEXNOLOGIIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING EKONOMETRIK TAHLILI VA EMPIRIK NATIIJALAR	435
Pirmatov Oybek Shovkat o'g'li	



XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INSON KAPITALINI SAMARALI BOSHQARISH YO'LLARI	442
Raxmonov Shuxrat Shavkatovich	
PAXTA YETISHTIRISHDA QO'LLANILADIGAN BARQAROR QISHLOQ XO'JALIK AMALIYOTLARI: XALQARO ILMIY ADABIYOTLARNING TIZIMLI TAHLILI	447
Rashitova Nilufar Xatambayevna	
Mirkasimov Baxrom Ravshanovich	
Karimov Komiljon Xamidovich	
Abduvaliyeva Nilufar Muxamadnosir qizi	
RAQAMLI BANKLAR VA KIBERXAVFSIZLIK: ZAMONAVIY TAHDIDLAR VA HIMOA USULLARI	465
Abrorov Azizjon Akobirovich	
HUDUDLAR RIVOJLANISHI SHAROITIDA SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH UCHUN XAVFSIZLIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YONDASHUVLARI	470
Xalilov Nurullo Xamidillayevich	
HUDUDIY INVESTITSIYA OQIMLARINI DIFFERENSIAL BAHOLASH ASOSIDA MINTAQAVIY IQTISODIY O'SISHNI MANZILLI RAG'BATLANTIRISH.....	476
Ismoilov Azizbek Rustamjon o'g'li	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLİYALASHTIRISH AMALIYOTINING TAHLILI.....	485
Jumaniyazova Feruza Rajabovna	
O'ZBEKISTONDA XALQARO EKOLOGIK MAJBURIYATLARNI AMALGA OSHIRISHDA DAVLAT SIYOSATI VA HUQUQIY JAVOBGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI	491
G'ayratullayev Noxidxon Iqboljon o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RAQAMLASHTIRISH ORQALI TIJORAT RISKLARINI KAMAYTIRISH IMKONIYATLARI	495
Sharipova Gulmira Toxirovna	
MINTAQAVIY RIVOJLANISH TUSHUNCHASI, MAZMUNI VA TARKIBIY ELEMENTLARI.....	502
Rasuljonov Abu Bakr Abdumalik o'g'li	
SANOAT KORXONALARIDA INVESTITSION FAOLIYATNING IQTISODIY MOHIYATI VA INVESTITSION LOYIHALARNI SHAKLLANTIRISH ASOSLARI	507
Sarimsaqov Sherzod Xamidovich	
DAVLAT QIMMATLI QOG'OZLARI MUOMALASI VA ULARNING DAROMADLILIK XUSUSIYATLARINING MOLİYA BOZORI DINAMIKASIGA TA'SIRI.....	512
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
KICHIK BIZNESNI MOLİYAVIY QO'LLABQUVVATLASH TIZIMINI RIVOJLANTIRISH ORQALI TADBIRKORLIK FAOLLIGINI OSHIRISH.....	518
Kamoldinov Davronbek Ikromjon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TIBBIY TA'LIMNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI: GORIZONTAL MODEL VA 2026-YILGACHA RIVOJLANISH PROGNOZI.....	522
Nazarov Baxrom Mustafayevich	
QURILISH XIZMATLARI BOZORINING IQTISODIY MOHIYATI, MAZMUNI VA XIZMATLAR IQTISODIYOTIDAGI O'RNI	529
Shakarov Davron Ulashboyevich	
QISHLOQ JOYLARDA "AQLLI AGROTURIZM" VA RAQAMLI GEOAXBOROT TEKNOLOGİYALARINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY-INNOVATSION MODELLARI.....	537
Eshimova Sevinch Baxtiyor qizi	
ATMOSFERA IFLOSLANISHINING QISHLOQ XO'JALIGI HOSILDORLIGIGA TA'SIRI: HUDUDIY STATISTIKA ASOSIDAGI PANEL TAHLILI VA METODOLOGIK MUAMMOLAR.....	542
Eshpulatov Dostonbek Boxodir o'g'li	



KORXONALARNING STRATEGIK RIVOJLANISHINI BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH	556
Rasulov Baxtiyor Bahodirovich	
OLIJ TA'LIM TIZIMIDA PROFESSOR-O'QITUVCHILAR RESURSI TAQSIMOTI: TALABA-O'QITUVCHI NISBATINING TOIFAVIY TAHLILI VA DIFFERENSIAL TARTIBGA SOLISH MASALALARI	561
Mamajonova Mukhlisakhon Muzaffar qizi	



OLIV TA'LIM TIZIMIDA PROFESSOR-O'QITUVCHILAR RESURSI TAQSIMOTI: TALABA-O'QITUVCHI NISBATINING TOIFAVIY TAHLILI VA DIFFERENSIAL TARTIBGA SOLISH MASALALARI



Mamajonova Mukhlisakhon Muzaffar qizi
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
katta o'qituvchi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.
ORCID: 0009-0009-2320-2880

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston oliy ta'lim tizimida pedagogik resurs taqsimotining hozirgi holati milliy reytingning talaba-o'qituvchi nisbati (SFR) indikatorini bo'yicha e'lon qilingan rasmiy ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi. Empirik baza milliy reytingda baholangan 172 oliy ta'lim tashkilotini (169 kuzatuv) qamrab oladi va tanlama emas, populyatsiya hisoblanadi. Kruskal-Wallis testi to'rt toifa (amaliy, tibbiyot, ijtimoiy-gumanitar, ijodiy-sport) o'rtasidagi farqlarning yuqori darajada ahamiyatli ekanini ko'rsatdi ($H=62,33$; $p<0,001$; $\epsilon^2=0,36$), post-hoc taqqoslashlarda barcha juftliklar ahamiyatli chiqdi. Tizim bo'yicha tengsizlik ko'rsatkichlari yuqori: Jini=0,410, variatsiya koeffitsiyenti 94,5%, $D9/D1=5,79$. Olingan natijalar asosida PF-58-son Farmon doirasidagi moliyalashtirish mexanizmi uchun toifaviy differensial chegaralarning uch zonali modeli taklif etiladi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, talaba-o'qituvchi nisbati, pedagogik resurs, milliy reyting, differensial tartibga solish, Jini koeffitsiyenti, Kruskal-Wallis testi.

Аннотация. В статье анализируется распределение педагогических ресурсов в системе высшего образования Узбекистана на основе официально опубликованных данных индикатора соотношения «студент-преподаватель» (SFR) национального рейтинга. Эмпирическая база охватывает 172 вуза (169 наблюдений) и представляет собой генеральную совокупность. Тест Краскела-Уоллиса выявил высокосущественные различия между четырьмя категориями вузов ($H=62,33$; $p<0,001$; $\epsilon^2=0,36$); все парные сравнения значимы. Показатели неравенства высоки: Джини=0,410, коэффициент вариации 94,5%, $D9/D1=5,79$. Предложена трёхзонная модель дифференцированных пороговых значений для механизма финансирования в рамках Указа PF-58.

Ключевые слова: высшее образование, соотношение студент-преподаватель, национальный рейтинг, дифференцированное регулирование, коэффициент Джини.

Abstract. The article analyses the distribution of teaching resources across Uzbekistan's higher education system using officially published data on the student-faculty ratio (SFR) indicator of the national ranking. The empirical base covers 172 higher education institutions (169 observations) and constitutes the full population rather than a sample. The Kruskal-Wallis test reveals highly significant differences across the four institutional categories ($H=62,33$; $p<0,001$; $\epsilon^2=0,36$), with all pairwise comparisons significant. System-wide inequality is substantial: Gini=0.410, coefficient of variation 94.5%, $D9/D1=5,79$. A three-zone model of category-specific differential thresholds is proposed for the performance-based funding mechanism under Decree PF-58.

Keywords: higher education, student-faculty ratio, national ranking, differential regulation, Gini coefficient, Kruskal-Wallis test.



KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston oliy ta'limi jadal massifikatsiya bosqichini boshdan kechirmoqda: talabalar soni 1,6 milliondan oshdi, oliy ta'lim tashkilotlari tarmog'i yangi davlat muassasalari, tez o'sayotgan nodavlat sektor va xorijiy filiallar hisobiga ikki yuzdan ortiq birlikka kengaydi. Qamrovning bunday o'sishi tizim oldiga sifatni saqlash masalasini keskin qo'yadi, chunki ta'lim sifati nafaqat infratuzilma va dasturlar, balki har bir talabaga to'g'ri keladigan akademik e'tibor bilan ham belgilanadi. Talaba-o'qituvchi nisbati (student-faculty ratio, SFR) - mana shu e'tiborning eng sodda va xalqaro miqyosda eng keng qo'llanadigan o'lchovidir.

2026-yilgi islohotlar paketi ushbu ko'rsatkichga bevosita huquqiy maqom berdi. Vazirlar Mahkamasining 3783-son qarori bilan tasdiqlangan nizomga muvofiq SFR oliy ta'lim tashkilotlari milliy reytingining indikatorlaridan biri sifatida yuritiladi [3]; Prezidentning PF-58-son Farmoni esa davlat moliyalashtirishini, jumladan, talaba-o'qituvchi nisbati parametriga bog'lashni nazarda tutadi [1]. Shu tariqa SFR statistik ko'rsatkichdan moliyaviy oqibatli boshqaruv parametriga aylandi. Biroq bunday bog'lash qanday chegaralar asosida amalga oshirilishi kerakligi - yagona umumtuzim chegarasimi yoki toifaviy differensial chegaralarni - ochiq ilmiy va amaliy savol bo'lib qolmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi - milliy reytingning rasmiy e'lon qilingan SFR indikatorini ma'lumotlari asosida pedagogik resurs taqsimotining tizim darajasidagi diagnostikasini o'tkazish va uning natijalaridan kelib chiqib, differensial tartibga solish chegaralarini asoslashdir. Tadqiqot savollari quyidagicha: (1) SFR oliy ta'lim tashkilotlari va toifalar bo'yicha qay darajada notekis taqsimlangan? (2) Toifalar o'rtasidagi farqlar statistik jihatdan ahamiyatlimi? (3) Aniqlangan taqsimot xususiyatlaridan PF-58 mexanizmi uchun qanday chegaralar kelib chiqadi?

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Xalqaro adabiyotda reytinglar va ularning indikatorlari ta'lim siyosatining faol vositasiga aylangani atroflicha o'rganilgan. Ijtimoiy o'lchovlarning "reaktivligi" - o'lchov obyekt xatti-harakatini o'zgartirishi - fundamental mexanizm sifatida asoslangan [7], reyting-ko'rsatkichlarning resurslarga qattiq bog'lanishi tashkiliy o'zgarishlarni intizomga soluvchi, ayni paytda nomaqbul rag'batlarni kuchaytiruvchi omil ekani ko'rsatilgan [8]. Reytinglarning siyosat vositasi sifatidagi imkoniyatlari va xatarlari maxsus tahlil qilingan [11, 12], jahon darajasidagi universitetlarni shakllantirish uchun zarur resurs kontsentratsiyasi masalalari alohida yo'nalishni tashkil etadi [9, 10].

Post-sovet mintaqasi bo'yicha tadqiqotlar reytinglarning majburlovchi va me'yoriy izomorfizm mexanizmlari orqali milliy siyosatga singishini hujjatlashtirgan [13, 14]; Qozog'iston, Rossiya va O'zbekiston oliy ta'lim boshqaruvidagi transformatsiyalar qiyosiy o'rganilgan [15], O'zbekistonda ta'lim sifatini ta'minlash tizimining modernizatsiyasi alohida tavsiflangan [16]. Shu bilan birga, O'zbekiston oliy ta'lim tizimida pedagogik resurs taqsimotini butun tizim ko'lamida, rasmiy indikator ma'lumotlari asosida miqdoriy diagnostika qilgan ishlar bizga ma'lum emas; milliy reytingning joriy etilishi bunday tahlil uchun birinchi marta yaxlit empirik asos yaratdi. Mazkur maqola aynan shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ma'lumotlar manbai - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi tomonidan e'lon qilingan milliy reytingning talaba-o'qituvchi nisbati indikatorini bo'yicha rasmiy natijalar (2026) [4]. Baza to'rt toifadagi 172 oliy ta'lim tashkilotini qamrab oladi: amaliy (40), ijtimoiy-gumanitar (106), tibbiyot (14), ijodiy-sport (12); shtatida professor-o'qituvchisi qayd etilmagan uch muassasa hisob-kitoblardan chiqarilgan ($n=169$). Ta'kidlash joizki, bu tanlama emas, milliy reytingda baholangan tashkilotlarning to'liq populyatsiyasidir: shu bois statistik testlar bosh to'plamga ekstrapolyatsiya uchun emas, kuzatilgan farqlarning tasodifiy taqsimlanish gipotezasiga zidligini baholash uchun qo'llanadi. Reyting qamroviga kirmagan muassasalar (idoraviy va ayrim maxsus OTMLar) tahlil chegarasi sifatida qayd etiladi.

Tahlil ketma-ketligi quyidagicha. Avval toifalar kesimida tavsifiy statistika hisoblanadi. Taqsimot shakli Shapiro-Wilk, dispersiyalar bir xilligi Levene testi bilan tekshiriladi; ularning natijalariga ko'ra toifalararo farqlar noparametrik Kruskal-Wallis testi bilan, juftlik taqqoslashlar Mann-Whitney testi (ko'p taqqoslash uchun Holm tuzatishi) bilan baholanadi, effekt hajmi epsilon-kvadrat (ϵ^2) orqali ifodalanadi. Taqsimot tengsizligi Jini koeffitsiyenti, variatsiya koeffitsiyenti, dessil nisbati ($D9/D1$) va Lorenz egri chizig'i yordamida o'lchanadi.



Nihoyat, toifalar ichidagi kvartil va persentil chegaralari asosida differensial tartibga solish zonalari taklif etiladi. Barcha hisob-kitoblar dasturiy skriptlar asosida bajarilgan va takrorlanuvchidir.

Bitta metodik chegarani alohida qayd etamiz: SFR qiymati bilan ayni indikator bali o'rtasidagi bog'liqlik tahlilga kiritilmadi, chunki ball nisbatdan bevosita hisoblanadi va bunday korrelyatsiya konstruksiyaga ko'ra trivialdir. SFR bilan reytingning yakuniy integral natijasi o'rtasidagi bog'liqlikni baholash yakuniy reyting ma'lumotlari e'lon qilingach, alohida tadqiqotda amalga oshiriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tavsifiy statistika (1-jadval) toifalar o'rtasidagi chuqur tafovutni darhol namoyon etadi: ijodiy-sport toifasida mediana 7,1 ni, tibbiyotda 12,7 ni tashkil etgani holda, amaliy toifada 21,3 ga, ijtimoiy-gumanitar toifada esa 31,0 ga yetadi. Butun tizim bo'yicha o'rtacha (33,8) medianadan (23,5) sezilarli yuqori - taqsimot kuchli o'ngga qiyshaygan bo'lib, cheklangan sonli yuqori qiymatlar o'rtachani yuqoriga tortadi. Eng katta ichki xilma-xillik amaliy toifada kuzatiladi ($CV=132,3\%$), bu yakka ekstremal qiymat (244,0) ta'siri bilan bog'liq; eng bir jinsli toifa - tibbiyot ($CV=35,2\%$) (1-jadval).


1-jadval. SFR indikatorining toifalar kesimidagi tavsifiy statistikasi. Manba: [4] asosida muallif hisob-kitoblari.

Toifa	n	O'rtacha	Mediana	SD	CV, %	Min	Maks	Q1	Q3	Jini
Amaliy	40	27,0	21,3	35,8	132,3	7,8	244,0	17,7	24,0	0,323
Ijodiy-sport	11	8,4	7,1	4,5	53,6	2,0	15,7	5,5	11,4	0,287
Ijtimoiy-gumanitar	104	41,8	31,0	31,2	74,6	8,6	140,1	21,3	48,0	0,367
Tibbiyot	14	14,0	12,7	4,9	35,2	9,4	27,6	11,8	13,4	0,156
Butun tizim	169	33,8	23,5	32,0	94,5	2,0	244,0	16,9	36,6	0,410

Taqsimot shakli testlari parametrik tahlil shartlari bajarilmasligini ko'rsatdi: Shapiro-Wilk testi amaliy ($W=0,289$), ijtimoiy-gumanitar ($W=0,784$) va tibbiyot ($W=0,725$) toifalarida normallikni rad etdi ($p<0,001$), Levene testi dispersiyalar bir xilligini rad etdi ($p=0,012$). Shu bois toifalararo farqlar Kruskal-Wallis testi bilan baholandi va yuqori darajada ahamiyatli chiqdi: $H=62,33$; erkinlik darajasi 3; $p<0,001$. Effekt hajmi $\varepsilon^2=0,36$ - bu «katta effekt» mezonidan ancha yuqori bo'lib, toifa mansubligi SFR variatsiyasining muhim qismini izohlashini bildiradi. Post-hoc taqqoslashlar (2-jadval) yanada muhim natija berdi: Holm tuzatishidan keyin ham barcha olti juftlik farqi ahamiyatli - ya'ni to'rt toifa bir-biridan ajralgan to'rt alohida rejimda faoliyat yuritmoqda (1-rasm).


2-jadval. Juftlik taqqoslashlar natijalari (Mann-Whitney, Holm tuzatishi). Manba: muallif hisob-kitoblari.

Taqqoslanayotgan juftlik	U statistikasi	p (Holm)	Xulosa
Amaliy - Ijodiy-sport	424,0	$<0,001$	ahamiyatli
Amaliy - Ijtimoiy-gumanitar	1139,0	$<0,001$	ahamiyatli
Amaliy - Tibbiyot	471,5	$<0,001$	ahamiyatli
Ijodiy-sport - Ijtimoiy-gumanitar	21,0	$<0,001$	ahamiyatli
Ijodiy-sport - Tibbiyot	33,5	0,018	ahamiyatli
Ijtimoiy-gumanitar - Tibbiyot	1340,0	$<0,001$	ahamiyatli



1-rasm. SFR taqsimoti toifalar kesimida (logarifmik shkala).
Manba: [4] asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Tengsizlik o'lchovlari tizim darajasidagi assimetriyani miqdoran muhrlaydi. Butun tizim bo'yicha Jini koeffitsiyenti 0,410 ga teng; dessil nisbati $D9/D1=5,79$ - yuqori dessildagi muassasada o'qituvchi zimmasidagi yuklama quyi dessildagidan qariyb olti barobar og'ir. 56 muassasada (33%) SFR respublika o'rtachasi (30,3) dan, 21 tasida (12%) 60 dan, 10 tasida (6%) esa 100 dan yuqori. Lorenz egri chizig'i (2-rasm) mutlaq tenglik chizig'idan sezilarli chetlanadi. Toifalar ichidagi tengsizlik ham bir xil emas: tibbiyotda taqsimot ancha tekis (Jini=0,156), ijtimoiy-gumanitar toifada esa eng notekis (Jini=0,367) - aynan shu toifada eng yuqori qiymatlar jamlangan (2-rasm).



2-rasm. SFR taqsimotining Lorenz egri chizig'i (n=169). Manba: muallif hisob-kitoblari.



Aniqlangan qonuniyatlardan amaliy xulosa kelib chiqadi: to'rt toifa statistik jihatdan to'rt alohida rejim ekan, ularga yagona umumtuzim chegarasini qo'llash metodik jihatdan asossizdir - ijodiy-sport toifasi uchun me'yoriy hisoblangan qiymat ijtimoiy-gumanitar toifa uchun erishib bo'lmay, ijtimoiy-gumanitar toifaning o'rtacha qiymati esa tibbiyot uchun inqiroz belgisi bo'lur edi. Shu asosda toifalar ichidagi kvartil va persentil chegaralariga tayangan uch zonali differensial model taklif etiladi (3-jadval): toifa uchinchi kvartili (Q3) ichidagi qiymatlar me'yoriy zona, Q3 dan to'qsoninchi persentilgacha (P90) - ogohlantirish zonasi, P90 dan yuqorisi - kritik zona sifatida belgilanadi. Joriy taqsimotda kritik zonaga jami 18 muassasa to'g'ri keladi (3-jadval).

3-jadval. PF-58 mexanizmi uchun taklif etilayotgan toifaviy differensial chegaralar (joriy taqsimot asosida). Manba: muallif ishlanmasi.

Toifa	Me'yoriy zona ($\leq Q3$)	Ogohlantirish zonasi (Q3-P90)	Kritik zona ($> P90$)	Kritik zonadagi OTMlar
Amaliy	$\leq 24,0$	24,0-29,8	$> 29,8$	4
Ijodiy-sport	$\leq 11,4$	11,4-14,7	$> 14,7$	1
Ijtimoiy-gumanitar	$\leq 48,0$	48,0-84,6	$> 84,6$	11
Tibbiyot	$\leq 13,4$	13,4-20,1	$> 20,1$	2

Natijalar uchta talqin qatlamiga ega. Birinchidan, toifalararo farqlarning barqaror va yirik ekani tasodif emas, faoliyat tabiatidan kelib chiqadi: ijodiy-sport va tibbiyot yo'nalishlarida ta'lim jarayonining individual-amaliy xarakteri past nisbatni obyektiv taqozo etadi, ijtimoiy-gumanitar yo'nalishlarda esa ommaviy ma'ruza formati yuqori nisbatga imkon beradi. Biroq kuzatilayotgan qiymatlar bu obyektiv farqning oqilona chegarasidan chiqib ketgan holatlarni ham qamrab oladi: ayrim muassasalarda bir o'qituvchiga yuzdan ortiq talaba to'g'ri kelishi individual ishlash, amaliy mashg'ulotlar sifati va ilmiy rahbarlik imkoniyatlarini keskin cheklaydi. Bunday qiymatlar asosan tez kengaygan nodavlat segmentda va ayrim filiallarda jamlangani massifikatsiyaning sifat nazorati bilan hamqadam bormaganidan dalolat beradi.

Ikkinchidan, xalqaro tajriba o'lchov ko'rsatkichini moliyaga bog'lashning ikki tomonlama tabiatidan ogohlantiradi: bunday bog'lash xatti-harakatni tez o'zgartiradi, lekin ko'rsatkichni «bezash» va maqsad siljishi xavfini ham keltirib chiqaradi [7, 8]. SFR holatida bu xavf o'qituvchilarni rasmiy shtatga formal kiritish, ammo real yuklamani o'zgartirmaslik ko'rinishini olishi mumkin. Shu bois taklif etilayotgan model chegaralarni jazolash vositasi emas, monitoring va tabaqalashtirilgan qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida qo'llashni nazarda tutadi: kritik zonadagi muassasalar uchun avvalo sabablar tahlili (kontingent tarkibi, o'rindoshlik amaliyoti, hisobga olish sifati) o'tkazilishi, moliyaviy choralar esa tasdiqlangan hollarda bosqichma-bosqich joriy etilishi maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, chegaralarning kvartil-persentil asosda belgilanishi ularning o'z-o'zini yangilab borishini ta'minlaydi: taqsimot yaxshilangani sari zonalar chegarasi ham siljiydi, ya'ni model statik me'yor emas, dinamik benchmark sifatida ishlaydi. Bu yondashuv 3783-son nizomning yillik reyting sikli bilan tabiiy uyg'unlashadi [3] va PF-58 mexanizmining 2027-yildan kuchga kirishigacha bo'lgan davrda chegaralarni aprobatsiya qilish imkonini beradi [1].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot O'zbekiston oliy ta'lim tizimida pedagogik resurs taqsimotining birinchi tizim ko'lamidagi, rasmiy indikator ma'lumotlariga asoslangan diagnostikasini taqdim etdi. Asosiy xulosalar: (1) to'rt toifa statistik jihatdan to'rt alohida rejimni tashkil etadi - barcha juftlik farqlari ahamiyatli, effekt hajmi katta; (2) tizim darajasidagi tengsizlik yuqori ($Jini=0,410$; $D9/D1=5,79$) va asosan ijtimoiy-gumanitar toifaning yuqori dumida jamlangan; (3) shu sharoitda yagona umumtuzim chegarasi asossiz bo'lib, toifaviy differensial yondashuv zarur.

Amaliy takliflar sifatida quyidagilar ilgari suriladi: PF-58 mexanizmida SFR parametrini toifaviy uch zonali model (me'yoriy $\leq Q3$, ogohlantirish Q3-P90, kritik $> P90$) asosida qo'llash; kritik zonadagi muassasalar bo'yicha moliyaviy choralargacha majburiy sabab tahlilini joriy etish; chegaralarni har yillik reyting sikli bilan qayta hisoblab borish; shtat hisobiga olish metodikasini (asosiy shtat va o'rindoshlikni farqlash) yagona standartga keltirish. Keyingi tadqiqot yo'nalishi sifatida SFR ning reyting yakuniy natijalari bilan ko'p omilli bog'liqligini baholash hamda OTM darajasidagi talaba va o'qituvchilar mutlaq sonlari asosida resurs taqsimotining to'liq Lorenz-tahlilini o'tkazish belgilangan.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-apreldagi «Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-58-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-8129755>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 26-maydagi «Yangi avlod ilmiy kadrlarini tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi PF-98-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-7594283>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 28-fevraldagi «Oliy ta'lim tashkilotlari milliy reytingini yuritish to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 3783-son qarori.
4. Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi. Oliy ta'lim tashkilotlari milliy reytingi: talaba-o'qituvchi nisbati indikator natijalari (rasmiy tahliliy materiallar). - Toshkent, 2026.
5. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. O'zbekistonning 24 ta oliy ta'lim tashkiloti «THE Sustainability Impact Ratings-2026» reytingida Top-1000 talik ro'yxatga kirdi: rasmiy e'lon, 2026-yil 25-iyun. - gov.uz.
6. Salmi J. The Challenge of Establishing World-Class Universities. - Washington, DC: The World Bank, 2009.
7. Espeland W.N., Sauder M. Rankings and reactivity: how public measures recreate social worlds // American Journal of Sociology. - 2007. - Vol. 113, No. 1. - P. 1-40.
8. Sauder M., Espeland W.N. The discipline of rankings: tight coupling and organizational change // American Sociological Review. - 2009. - Vol. 74, No. 1. - P. 63-82.
9. Altbach P.G., Salmi J. (eds). The Road to Academic Excellence: The Making of World-Class Research Universities. - Washington, DC: The World Bank, 2011.
10. Hazelkorn E. Rankings and the Reshaping of Higher Education: The Battle for World-Class Excellence. - 2nd ed. - Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2015.
11. Salmi J., Saroyan A. League tables as policy instruments: uses and misuses // Higher Education Management and Policy. - 2007. - Vol. 19, No. 2. - P. 24-62.
12. Marginson S. University rankings and social science // European Journal of Education. - 2014. - Vol. 49, No. 1. - P. 45-59.
13. DiMaggio P.J., Powell W.W. The iron cage revisited: institutional isomorphism and collective rationality in organizational fields // American Sociological Review. - 1983. - Vol. 48, No. 2. - P. 147-160.
14. Anafinova S. The role of rankings in higher education policy: coercive and normative isomorphism in Kazakhstani higher education // International Journal of Educational Development. - 2020. - Vol. 78. - Art. 102246.
15. Azimbayeva G. Comparing post-Soviet changes in higher education governance in Kazakhstan, Russia, and Uzbekistan // Cogent Education. - 2017. - Vol. 4, No. 1. - Art. 1399968.
16. Krouglov A. Modernisation of higher education in Uzbekistan: transforming quality assurance system and approaches // Society. Integration. Education: Proceedings of the International Scientific Conference. - 2022. - Vol. 1. - P. 148-156.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>